



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI




No7  
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiyaga fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 102 sahifa,  
1-iyul, 2025-yil.

## BOSH MUHARRIR:

Umarova H. O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

## BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Umarova H.O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor

G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)

Somurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'icha falsafa doktori (PhD)

Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari

Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

**Umarova H. O'.** – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Karimova E'zoza Gapirzhanovna** – Rector of the Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

**Shoumarov G' B.** – Doctor of Psychological Sciences, Academician

**Umarova H.O'.** – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**Qirg'izboyev A. K.** – Doctor of Historical Sciences, Professor

**Jamoldinova O.R.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Sharipov Sh.S.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Shermuhhammadov B.Sh.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Ma'murov B.B.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Madraximova F.R.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Kalonov M.B.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Nabiyev D.X.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Koldoshev K. M.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Ikramxanova F.I.** – Doctor of Philological Sciences, Professor

**Ismagilova F.S.** – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

**Stoyuxina N.Yu.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

**Magauova A.S.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

**Rejep O'zyurek** – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

**Wookyu Cha** – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

**Polonnikov A.A.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

**Mizayeva F. O.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Baybayeva M.X.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Muxsiyeva A.T.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Aliyev B.** – Doctor of philosophy, professor

**Gafurov D. O.** – Doctor of Philosophy (PhD)

**Shomurodov R.T.** – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

**Mirzayeva F.O.** – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

**Jalilova S.X.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Bafayev M.M.** – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Usmonova D.I.** – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

**Saifnazarov I.** – Doctor of philosophy, professor

**Nematov Sh.E.** – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

**Tillashayxova X.A.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Yuldasheva F.I.** – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

**Yuldasheva D.B.** – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

**Tangriyev A.T.** – is a professor of Tashkent State University of Economics

**Ashurov R. R.** – doctor of philosophy (PhD) in psychology

**Panjiyev M. A.** – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

**Khudaiberganov N. A.** – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali Oliy attestatsiya komissiyasining 26-08-2024-yildagi №11-05-4381/01-Kengash tavsiyasiga ko’ra, pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning tadqiqot ishlari yuzasidan dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro’yxatiga kiritilgan.

Asos: OAK Pedagogik texnologiyalar va psixologik tadqiqotlar bo’yicha ekspert kengashi tavsiyasi (29-10-2024-y.; №10); OAK Tartib-qoida komissiyasi qarori (30-10-2024-y., №10/24); OAK Rayosatining qarori (31-10-2024-y., №363/5).

“Maktabgacha va maktab ta’limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo’yicha  
ro’yxatdan o’tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

|                                                                                                                                       |    |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy bilimlarini shakllantirish.....                                                             | 16 |
| <i>Nazarov Odil Omanqulovich</i>                                                                                                      |    |
| "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"da ijtimoiy-pedagogik hamkorlikning o'rni .....                                               | 20 |
| <i>Abirova Umida Nazarovna</i>                                                                                                        |    |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarini oldini olish va uning ahamiyati .....                                    | 23 |
| <i>Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li</i>                                                                                              |    |
| Pedagogik jarayonda axloqiy qarashlarni shakllantirish usul va vositalari .....                                                       | 27 |
| <i>Xudoykulova Shaxlo Mamaniyozovna</i>                                                                                               |    |
| Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining ijodkorligini rivojlantirishda ta'limiy o'yinlarning ahamiyati .                     | 31 |
| <i>Salimova Dilmira Farxodovna</i>                                                                                                    |    |
| Aholining iqtisodiy axborot savodxonligini oshirishdagi muammo va kamchiliklar .....                                                  | 34 |
| <i>Rajabov Asliddin Xolmirzayevich</i>                                                                                                |    |
| Favqulodda vaziyatlar yo'nalishi ta'limida muloqotning ahamiyati.....                                                                 | 37 |
| <i>Boltayev Baxtiyor Yunusovich</i>                                                                                                   |    |
| Biologiya ta'limi va raqamli texnologiyalar .....                                                                                     | 41 |
| <i>E. Po'latova</i>                                                                                                                   |    |
| Boshlang'ich ta'limga tayyorlov guruhi bolalarini kasbga yo'naltirishda stem yondashuvining ahamiyati ....                            | 44 |
| <i>Egamova Ravshanoy Surobjonovna</i>                                                                                                 |    |
| O'zbekiston TIMSS natijalarini qanday yaxshilashi mumkin?                                                                             |    |
| Innovatsion ta'lim yondashuvlari va samarali strategiyalar.....                                                                       | 48 |
| <i>G'ayniddinov Shayxislom Tolibjon o'g'li</i>                                                                                        |    |
| Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda mutaxassislar hamkorligi .....                                                                  | 53 |
| <i>Isayeva Mushtariy Alisher qizi</i>                                                                                                 |    |
| Developing Student's Critical Skills Through Technology-Enhanced English Lessons .....                                                | 56 |
| <i>Mavlonova Dildora Shuxrat qizi</i>                                                                                                 |    |
| Bahrom Ro'zimuhammad she'rlarini o'qitishda integratsiya usulidan foydalanish .....                                                   | 60 |
| <i>Nomozova Dilobar Suyun qizi</i>                                                                                                    |    |
| Aksiologik yondashuvlar asosida bo'lajak pedagoglarda altruizm ko'nikmalarini shakllantirish:<br>bosqichlar va tamoyillar.....        | 65 |
| <i>Norboyeva Moxigul Shavkat qizi</i>                                                                                                 |    |
| 3D Modeling of Virtual Chemical Laboratories .....                                                                                    | 68 |
| <i>Qayumov Jamshid Ma'rufjon o'g'li</i>                                                                                               |    |
| Fostering Metacognitive Skills in Efl Learners Through Ai-Supported Instruction:<br>a Review of Recent Literature .....               | 73 |
| <i>Ruzieva Maftuna</i>                                                                                                                |    |
| Onlayn va gibrid ta'lim sharoitida mashinasozlik texnologiyasi faniga<br>qiziqishni oshirishning nazariy asoslari.....                | 78 |
| <i>Sarimsakova Soxibaxon Raxmonjanovna</i>                                                                                            |    |
| Loyihalashtirilgan integral darslar samaradorligi<br>(9-sinflar uchun "metallar va ularning umumiy xususiyatlari" mavzusida) .....    | 81 |
| <i>Sharipova Hakima Shavkatovna</i>                                                                                                   |    |
| Metacognition and Self-Regulated Learning .....                                                                                       | 85 |
| <i>Turayeva Nazira Ibragimovna</i>                                                                                                    |    |
| Методические возможности совершенствования обучения научной<br>письменной речи на основе коммуникативно-деятельностного подхода ..... | 88 |
| <i>Меденцева Наталья Петровна</i>                                                                                                     |    |
| Transformatsion jarayonlarda tibbiyot oliy ta'lim muassasalari<br>raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari .....                  | 93 |
| <i>Jonibekov Jasur Jonibekovich</i>                                                                                                   |    |
| O'zbek milliy musiqasi: boy madaniyat va san'atning ajralmas qismi.....                                                               | 98 |
| <i>Rustamova Maxsuma Farxodbek qizi</i>                                                                                               |    |





# AKSIOLOGIK YONDASHUVLAR ASOSIDA BO'LAJAK PEDAGOGLARDA ALTRUIZM KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH: BOSQICHLAR VA TAMOYILLAR

Norboyeva Moxigul Shavkat qizi

Alfraganus universiteti

"Pedagogika va psixologiya" kafedrası o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada aksiologik yondashuvlar asosida bo'lajak pedagoglarda altruizm ko'nikmalarini shakllantirishning bosqichlari va tamoyillari ilmiy asosda tahlil etiladi. Altruizm nafaqat pedagogning shaxsiy rivojlanishida, balki o'quvchilarga ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarni singdirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada altruizmnı shakllantirishning bosqichlari – o'zini anglash, jamiyat bilan integratsiyalashuv va o'zini rivojlantirish jarayonlari – ketma-ketlikda ko'rib chiqiladi. Shuningdek, altruistik ko'nikmalarni shakllantirishning asosiy tamoyillari, metodologik yondashuvlari va ularni amaliyotga tatbiq etish usullari tahlil qilinadi. Maqola bo'lajak o'qituvchilarda altruistik xatti-harakatlarni rivojlantirishga qaratilgan nazariy asos va amaliy tavsiyalarni taqdim etadi.

**Kalit so'zlar:** altruizm, pedagogika, aksiologik yondashuv, ijtimoiy mas'uliyat, empatiya, ta'limda axloqiy qadriyatlar, o'quvchi tarbiyasi, jamiyatga xizmat qilish.

**Abstract:** This article scientifically analyzes the stages and principles of developing altruistic skills in future educators through axiological approaches. Altruism plays a crucial role not only in the personal development of teachers but also in instilling social and moral values in students. The article explores the sequential stages of altruism formation – self-awareness, social integration, and continuous self-development. Furthermore, it examines the core principles, methodological approaches, and practical strategies for implementing altruism in the educational process. The article provides both a theoretical foundation and practical recommendations for fostering altruistic behavior in prospective teachers.

**Key words:** Altruism, pedagogy, axiological approach, social responsibility, empathy, moral values in education, student upbringing, service to society.

**Аннотация:** В статье научно обосновано формирование альтруистических навыков у будущих педагогов на основе аксиологических подходов. Альтруизм играет важную роль не только в профессиональном развитии педагога, но и в передаче обучающимся социальных и нравственных ценностей. Рассматриваются основные этапы формирования альтруизма – самопознание, интеграция в общество и дальнейшее саморазвитие. Также анализируются ключевые принципы, методологические подходы и методы практического внедрения альтруистических установок в образовательный процесс. Статья содержит как теоретические положения, так и практические рекомендации по развитию альтруистического поведения у будущих учителей.

**Ключевые слова:** альтруизм, педагогика, аксиологический подход, социальная ответственность, эмпатия, нравственные ценности в образовании, воспитание обучающихся, служение обществу.

## KIRISH

Bugungi kunda pedagogika nafaqat bilim berish, balki axloqiy, ijtimoiy va insoniy qadriyatlarni shakllantirish jarayoniga ham qaratilgan. Aksiologik (qadriyatshunoslik) yondashuvlar asosida bo'lajak pedagoglarda altruizm ko'nikmalarini rivojlantirish nafaqat o'quvchilarda empatiya, rahm-shafqat kabi insoniy fazilatlarini mustahkamlaydi, balki jamiyatda ijtimoiy adolat va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Altruizm – bu boshqalarning manfaatlarini o'z manfaatlaridan ustun qo'yish, yordam berish va boshqalarga xizmat qilish istagi bo'lib, u pedagogik jarayonda muhim o'rin egallaydi.

Pedagogning altruistik faoliyati faqat bilim berish bilan cheklanmaydi. U o'quvchilarni ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarni to'g'ri anglashga, adolatlı bo'lishga, boshqalarga hurmat ko'rsatishga ham o'rgatadi. Ushbu maqolada bo'lajak pedagoglarda altruistik ko'nikmalarni aksiologik yondashuvlar asosida shakllantirish bosqichlari va tamoyillari ilmiy asosda tahlil qilinadi.



Aksiologik yondashuv pedagogikada insonning qadriyatlari bilan bog'liq masalalarni o'rganishga yo'naltirilgan. Bu yondashuv ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlar, ijtimoiy, madaniy va axloqiy me'yorlar, shuningdek, o'quvchilarning ichki dunyosi va shaxsiy qadriyatlarini o'rganish imkonini yaratadi. Altruizmni shakllantirishda aksiologik yondashuvlar o'quvchining nafaqat bilimga, balki ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarga ham e'tibor qaratishini ta'minlaydi.

Altruizm – bu boshqalarning manfaatlarini o'z manfaatlaridan ustun qo'yish, yordam berish va ular uchun xizmat qilish istagi bo'lib, pedagogik faoliyatda o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishi uchun zaruriy omil hisoblanadi. Altruistik pedagog o'z faoliyatida nafaqat bilimlarni, balki ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarni ham singdiradi. Bunday pedagoglar o'quvchilarda insonparvarlik, rahm-shafqat va boshqalarga yordam berishga tayyorlik kabi fazilatlarni shakllantiradilar.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Aksiologik yondashuv pedagogikada shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlarni uyg'un shakllantirishda muhim metod hisoblanadi. G'ulomova M. S. ta'lim jarayonini insonparvarlik tamoyillariga asoslashda qadriyatlar tizimining o'rnini chuqur yoritadi. Hasanov A. ijtimoiy qadriyatlarning ta'limdagi ta'sirini ochib berib, altruizmni shakllantirishda empatiya va mas'uliyat tuyg'usining ahamiyatini ta'kidlaydi. Balandova M. A. pedagogikada aksiologik yondashuvni ijtimoiy mas'uliyat bilan bog'liq holda tahlil qiladi. Qosimov S. S. esa altruizmni o'rgatishda amaliy metodlar va pedagogik yondashuvlar samaradorligini ko'rsatadi. Aripov D. A. va Omonov A. asarlarida esa shaxsiy mas'uliyat va ijtimoiy integratsiya orqali altruistik ko'nikmalar rivoji izohlanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Altruizm ko'nikmalarini shakllantirish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Eng avvalo, pedagog o'zini anglash jarayonidan boshlashi lozim. Bu bosqichda u o'zining axloqiy qadriyatlarini, shaxsiy pozitsiyasini shakllantiradi hamda ichki dunyosi va boshqalarga nisbatan munosabatini tahlil qiladi. Pedagog o'zining jamiyatdagi o'rnini, o'zaro yordam va hamkorlik tamoyillarini anglab yetishi zarur. Bu orqali u altruistik faoliyatga ichki ehtiyoj sifatida yondasha boshlaydi. O'zini anglash, axloqiy qadriyatlar va jamiyat oldidagi mas'uliyat hissi – altruizmni shakllantirishdagi asosiy poydevorlardir.

Keyingi bosqichda pedagoglar jamiyat bilan faol integratsiyalashadi. Bu jarayonda ular ijtimoiy muammolarga befarq bo'lmaslik, boshqalarning ehtiyojlarini anglash va yordam berishga tayyor bo'lish orqali altruistik ko'nikmalarni rivojlantiradilar. Ijtimoiy adolatga erishish, boshqalarning his-tuyg'ularini anglash, empatiya va o'zaro yordam madaniyatini shakllantirish pedagogning amaliy faoliyatining ajralmas qismiga aylanadi. Bu bosqichda pedagog o'z o'quvchilariga jamiyatda faol bo'lish, muammolarni hal etishda ishtirok etish va boshqalar bilan hamkorlik qilish ko'nikmalarini singdiradi.

Uchinchi bosqichda pedagog altruistik xatti-harakatlarini mustahkamlab, ularni doimiy ravishda rivojlantiradi. U o'z ustida ishlashni davom ettiradi, yangiliklarga ochiq bo'ladi va jamiyatga xizmat qilishni o'z faoliyatining markaziga qo'yadi. Shu tariqa, altruizm pedagog uchun vaqtinchalik yondashuv emas, balki kasbiy va hayotiy tamoyilga aylanadi. O'zini rivojlantirish, jamiyatga foydali bo'lish va altruistik qadriyatlarni doimiy takomillashtirish – bu bosqichning asosiy yo'nalishlaridir.

Pedagogik faoliyatda altruizmni shakllantirish maqsadida bir qator tamoyillar muhim ahamiyatga ega. Insonparvarlik tamoyiliga ko'ra, pedagog boshqalarning holatiga befarq bo'lmasligi, ularning ehtiyoj va istaklarini hurmat qilishi lozim. Mas'uliyat tamoyili esa pedagogdan o'z harakati va qarorlarining jamiyat va o'quvchilarga bo'lgan ta'sirini chuqur tahlil qilishni va javobgarlikni his qilishni talab etadi. Empatiya tamoyili boshqalarning his-tuyg'ularini chuqur anglash va ularni qo'llab-quvvatlashni anglatadi. Shu bilan birga, tenglik va adolat tamoyili ham muhim o'rin tutadi – har bir o'quvchiga teng yondashish, madaniy va ijtimoiy farqlarga hurmat bilan qarash, ijtimoiy huquqiy ongini shakllantirish zarur.

Altruizm ko'nikmalarini samarali shakllantirish uchun turli metodologik yondashuvlardan foydalaniladi. Interaktiv metodlar orqali o'quvchilar muloqot qilish, guruhviy ishlarda ishtirok etish va o'zaro yordam ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Holistik yondashuv o'quvchini butun shaxs sifatida rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, nafaqat bilim, balki axloqiy va ijtimoiy jihatlar ham hisobga olinadi. Maxsus dasturlar va treninglar orqali esa pedagoglar empatiya, ijtimoiy mas'uliyat va altruistik qadriyatlarni o'zida shakllantiradi. Shuningdek, refleksiya va o'z-o'zini tahlil qilish orqali pedagoglar o'z faoliyatini baholab, altruistik faoliyat samaradorligini oshirish yo'lida doimiy rivojlanib boradilar.

Ushbu metodologiyalar orqali bo'lajak pedagoglarda altruistik yondashuv ongli va tizimli tarzda shakllanadi.



## TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, altruizm ko'nikmalarini bo'lajak pedagoglarda shakllantirish bosqichma-bosqich va tizimli yondashuv asosida amalga oshirilganda samaradorlik ortadi. Pedagogik faoliyatda o'zini anglash, ijtimoiy integratsiya va shaxsiy takomillik altruistik xatti-harakatlarning shakllanishida muhim omillar hisoblanadi. Metodologik yondashuvlar, xususan, interaktiv metodlar, holistik tamoyillar va reflektiv tahlil usullari orqali o'quvchilarda empatiya, mas'uliyat va insonparvarlik singari qadriyatlar muvaffaqiyatli rivojlantiriladi.

Amaliy kuzatuvlar shuni tasdiqlaydiki, altruistik yondashuvlarni qo'llagan pedagoglar o'quvchilar bilan yanada mazmunli va ishonchli munosabatlar o'rnatadi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilar orasida ijtimoiy faollikning oshishiga, axloqiy qadriyatlarning chuqur singishiga olib keladi. Shuningdek, altruistik muhitda ta'lim olgan o'quvchilarda jamiyatga foydali bo'lish, boshqalarga yordam ko'rsatish istagi yuqori bo'lishi kuzatilmoqda.

Umuman olganda, aksiologik yondashuvga asoslangan pedagogik faoliyat altruizmni shakllantirishda samarali natijalar beradi hamda bu jarayon ta'lim-tarbiyaning ijtimoiy va axloqiy funksiyalarini kuchaytiradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Aksiologik yondashuvlar asosida bo'lajak pedagoglarda altruizm ko'nikmalarini shakllantirish – jamiyatda axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarni mustahkamlashning muhim vositasidir. Pedagoglar altruistik xatti-harakatlarni nafaqat o'quvchilarga o'rgatishlari, balki o'z faoliyatlarida ijtimoiy mas'uliyatni chuqur his etishlari, boshqalarga yordam berishga doim tayyor bo'lishlari lozim.

Ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun altruizmni shakllantirish bosqichlari, asosiy tamoyillari va metodologik yondashuvlarini chuqur o'rganish va amaliyotga joriy etish talab etiladi. Pedagog altruizmni shakllantirishda o'z ichki dunyosini anglay olishi, axloqiy qadriyatlar tizimini mustahkamlashi hamda ijtimoiy mas'uliyat hissini rivojlantirishi zarur.

Altruistik qadriyatlarni amalda qo'llash orqali o'qituvchi o'quvchilarda empatiya, o'zaro yordam va ijtimoiy faollikni shakllantiradi. Bunday yondashuv nafaqat o'quvchilarning axloqiy rivojiga, balki ularning jamiyatdagi faol ishtirokiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Natijada, altruistik qadriyatlarni singdirgan pedagoglar nafaqat ilmiy bilimlarni yetkazuvchi, balki insoniy fazilatlarini shakllantiruvchi shaxs sifatida namoyon bo'ladilar. Ushbu jarayonni tizimli va barqaror yo'lga qo'yish esa nafaqat pedagogning shaxsiy kamolotiga, balki butun jamiyatning axloqiy-ijtimoiy rivojiga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'ulomova, M. S. (2020). Aksiologik pedagogika: nazariya va amaliyot. Toshkent: Akademnashr.
2. Hasanov, A. (2018). Aksiologik yondashuvlar va ta'lim tizimida ijtimoiy qadriyatlarning roli. Journal of Education and Science, 12(5), 22–30.
3. Balandova, M. A. (2017). Pedagogika va ijtimoiy mas'uliyat: aksiologik yondashuvlar. Moskva: Vyssee obrazovanie.
4. Qosimov, S. S. (2021). Altruizm va ta'lim: pedagogik nazariyalar va amaliyot. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
5. Aripov, D. A. (2016). Shaxsiy va ijtimoiy mas'uliyatni pedagogik ta'lim orqali rivojlantirish. Pedagogik ta'limning zamonaviy yo'nalishlari, 5, 49–55.
6. Omonov, A. (2011). Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: O'qituvchi.
7. Qodirov, I. (2014). Pedagogik psixologiya. Toshkent: Toshkent davlat pedagogika universiteti.
8. Salimov, I. (2012). Aksiologik yondashuvlar: ta'lim tizimida qadriyatlar muammosi. Toshkent: Universitet nashriyoti.
9. Muhammadiev, F. (2007). Pedagogik axloq: nazariya va amaliyot. Toshkent: Iste'dod.
10. Jabborov, A. (2009). Psixologiyaning asoslari. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari





# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №7**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.